



YAPON ISHBILARMONLIK DISKURSIDA DIREKTIV NUTQIY AKTNING SAVOL SHAKLI ORQALI VOQELANISHI

N.T. Xalmurzayeva

PhD, dotsent,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20544412>

Annotatsiya. Mazkur maqolada yapon ishbilarmonlik diskursida savol shakli orqali voqelanadigan direktiv nutqiy aktlarning pragmatik funktsiyasi tahlil qilinadi. Ishbilarmonlik muloqotida soʻzlovchi koʻp hollarda adresatdan muayyan harakatni bajarishni, javob qaytarishni, kutishni, qayta qoʻngʻiroq qilishni, maʼlumot berishni yoki muddatni aniqlashtirishni soʻraydi. Biroq yapon tilida bunday harakatga undash mazmuni odatda toʻgʻridan-toʻgʻri buyruq shaklida emas, savol shaklidagi iltimos-soʻrov turgʻun iboralari orqali ifodalanaadi. Maqolada yapon ishbilarmonlik muloqotida qoʻllanadigan bilvosita turgʻun savol konstruktsiyalari asosida savol shaklining harakatga undash, nutqiy bosimni kamaytirish, ishbilarmonlik etiketini saqlash va adresatga shartli tanlov imkoni qoldirish funktsiyalari koʻrib chiqiladi. Tahlilga koʻra, gapning nutqiy aktning savol shakli yapon ishbilarmonlik diskursida faqat axborot soʻrash vositasi emas, balki bilvosita direktiv ifoda sifatida ham qoʻllanishini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: yapon tili, ishbilarmonlik diskursi, direktiv nutqiy akt, savol shakli, iltimos-soʻrov turgʻun iborasi, bevosita ifoda, bilvosita ifoda, turgʻun konstruktsiyalar, koʻmakchi feʼl, etiket.

Abstract. This article analyzes the pragmatic functions of directive speech acts realized through interrogative forms within Japanese business discourse. In commercial and professional communication, the speaker frequently requests the interlocutor to perform a specific action, provide an answer, wait, call back, supply information, or clarify a deadline. However, in the Japanese language, such directive intent is rarely manifested via direct imperative structures; instead, it is conventionally expressed through fixed interrogative-request formulas. Based on fixed indirect interrogative constructions used in Japanese corporate interactions, this study examines the pragmatic functions of interrogative forms, including soliciting action, mitigating illocutionary force (reducing conversational pressure), maintaining business etiquette, and providing the addressee with a conditional option of refusal. The analysis demonstrates that the interrogative form within Japanese business discourse functions not merely as a tool for information seeking, but acts as a highly conventionalized indirect directive device.

Keywords: Japanese language, business discourse, directive speech act, interrogative form, fixed request formulas, direct expression, indirect expression, fixed constructions, auxiliary verb, etiquette.

Аннотация. В данной статье анализируется прагматическая функция директивных речевых актов, реализуемых посредством вопросительной формы в японском деловом дискурсе. В процессе делового общения говорящий часто обращается к адресату с просьбой совершить определенное действие: предоставить ответ, подождать, перезвонить, выдать информацию или уточнить сроки. Однако в японском языке подобное побуждение к действию, как правило, выражается не в прямой императивной форме, а через устойчивые вопросительно-просительные формулы. На материале устойчивых косвенных вопросительных конструкций, применяемых в японской деловой коммуникации, в статье рассматриваются такие

функции вопросительной формы, как побуждение к действию, смягчение речевого давления, сохранение делового этикета и предоставление адресату условного права выбора (свободы отказа). Результаты анализа показывают, что вопросительная форма в японском деловом дискурсе выступает не только средством запроса информации, но и активно функционирует в качестве конвенционального косвенного директивного выражения.

Ключевые слова: японский язык, деловой дискурс, директивный речевой акт, вопросительная форма, устойчивая просительная формула, прямое выражение, косвенное выражение, устойчивые конструкции, вспомогательный глагол, этикет.

Kirish

Yapon ishbilarmonlik diskursida muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi nutqiy munosabat ko'pincha ochiq ko'rsatma yoki qat'iy talab bilan emas, balki ehtiyotkor, vaziyatga mos va hurmatni ifoda vositalari orqali tashkil etiladi. Telefon orqali ishbilarmonlik aloqasi, hamkor bilan javob muddatini kelishish, ma'lumotni aniqlashtirish, qayta qo'ng'iroq qilishni so'rash yoki suhbatdoshdan kutishni iltimos qilish kabi holatlarda so'zlovchi adresatdan ma'lum amalni kutadi. Mazmunan bunday nutqiy harakatlar direktiv xususiyatga ega, chunki ular adresatni muayyan harakatga yo'naltiradi.

Biroq yapon ishbilarmonlik nutqida harakatga undash mazmuni ko'p hollarda bevosita buyruq shaklida emas, savol shaklidagi iltimos-so'rov turg'un iboralari orqali beriladi. Masalan, "kutib turing" mazmuni ochiq buyruq shaklida ifodalanishi mumkin, ammo ishbilarmonlik muloqotida savol ko'rinishidagi hurmat darajasi bilan birga berilgan so'rov turg'un iboralari tabiiyroq qabul qilinadi. Bunday konstruktsiyalarda so'roq shakli saqlanadi, lekin asosiy pragmatik funktsiya axborot so'rashdan ko'ra adresatni harakatga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

Yapon kommunikativ aktiga oid tadqiqotlarda yapon muloqoti nisbatan qat'iy kommunikativ qoliplar va xushmuomalalik shakllari bilan belgilanishi qayd etiladi [7, B.101–107]. Shu nuqtai nazardan, ishbilarmonlik diskursida savol shaklidagi so'rovlarni oddiy axborot so'rash vositasi sifatida emas, balki adresat bilan munosabatni saqlagan holda harakatga undashni amalga oshiruvchi lingvopragmatik vosita sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Maqolada savol shaklidagi direktiv nutqiy akt deganda grammatik jihatdan so'roq gap yoki savol turg'un iborasiga ega bo'lgan, ammo nutqiy maqsad jihatidan adresatdan muayyan harakatni kutadigan ifoda tushuniladi. Bunday ifodalarda "savol" va "iltimos" ma'nolari bir-biri bilan kesishadi. So'zlovchi adresatga tanlov imkoni qoldirgandek ko'rinadi, ammo vaziyat ushbu savolning harakatga undash funktsiyasini ochib beradi.

Maqolaning maqsadi yapon ishbilarmonlik diskursida savol shakli orqali voqelanadigan direktiv nutqiy aktlarning pragmatik funktsiyasini tahlil qilishdan iborat. Tahlilda asosiy e'tibor telefon muloqoti, javobni eslatish, muddatni aniqlashtirish, qayta qo'ng'iroq qilish va ma'lumot so'rash kabi ishbilarmonlik vaziyatlaridagi turg'un konstruktsiyalarga qaratiladi. Maqolada umumiy model yoki yakuniy tasnif taklif etmaydi, u faqat savol shaklidagi ayrim direktiv turg'un iboralarning lingvopragmatik funktsiyalarini yoritish bilan cheklaniladi.

Material va metodlar

Tadqiqot materiali sifatida yapon ishbilarmonlik muloqotiga oid telefon suhbatlari, qayta qo'ng'iroq qilish, muddatni aniqlashtirish, javobni eslatish va ma'lumot so'rash vaziyatlarida qo'llangan savol shaklidagi iltimos-so'rov turg'un iboralari tanlandi. Tahlil uchun 8 ta turg'un ibora saralanib, maqolada ulardan 7 tasi asosiy material sifatida ko'rib chiqildi. Misollar 金子広幸 ning "にほんご敬語トレーニング" qo'llanmasida berilgan materiallarga tayanadi

Maqolada funktsional-lingvopragmatik tahlil, nutqiy aktlar tahlili, kontekstual tahlil hamda bevosita va bilvosita ifoda mezonni asosida tahlil usullaridan foydalanildi. Har bir misolda quyidagi kriteriyalar hisobga olindi: grammatik shakl, savol turg'un iborasi, adresatdan kutilgan harakat, muloqot vaziyati, nutqiy bosimni kamaytirish vositalari va ishbilarmonlik etiketiga moslik.

Harakatga undovchi nutqiy aktlar masalasi nutqiy aktlar nazariyasi doirasida direktivlar bilan bog'liq holda o'rganiladi. Yapon muloqot matnida suhbatdoshni bevosita va bilvosita harakatga undovchi nutqiy aktlar, shuningdek, ularning muloqot samaradorligidagi o'rnini alohida ta'kidlanadi [1, B.2]. Bu yondashuv savol shaklidagi ifodalarni ham oddiy so'roq gap emas, balki muayyan sharoitda harakatga yo'naltiruvchi nutqiy vosita sifatida qarashga asos beradi.

So'rov nutqiy aktiga oid tadqiqotlarda bevosita va bilvosita ifoda darajasi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Carrell va Konneker so'rovlarni grammatik shakl, muloyimlik va bilvositalik darajasi asosida farqlash mumkinligini ko'rsatgan [2, B.73–96]. Blum-Kulka va Olshtain tomonidan CCSARP (Iltimos va uzr so'rash nutqiy aktlarining madaniyatlararo amalga oshirilish modellari) loyihasiga asos solingan. Mualliflar turli madaniyatlarda (shu jumladan, ivrit, ingliz, nemis va boshqa tillarda) iltimos qilish qanchalik farq qilishini va xushmuomalalik faqat «bilvositalik» bilan o'lchanmasligini ilmiy isbotlab berishgan. Ushbu yondashuvda ham request strategiyalarini to'g'ridan-to'g'rilik darajasi, grammatik shakl va pragmatik maqsad asosida tahlil qilish muhim o'rin tutadi [3, B.196–213]. Shu jihatdan yaponcha savol turg'un iboralari grammatik jihatdan so'roq gap bo'lsa-da, ishbilarmonlik vaziyatida bilvosita direktiv ifoda sifatida amal qilishi mumkin.

Yapon tilida harakatga undovchi ma'no faqat maxsus buyruq shakllari bilan cheklanmaydi. L.Yu.Xronopulo yapon tilida imperativ semantika maxsus imperativ fe'l shakllarisiz, ya'ni asosiy ma'nosi boshqa bo'lgan noimperativ vositalar orqali ham berilishi mumkinligini ta'kidlaydi [4, B.57]. V.E.Iosifova esa undashni ifodalashning mazmunini belgilashda nutqiy vaziyat hal qiluvchi omil ekanini, savol shakli esa ko'p hollarda bilvosita harakatga undash vazifasini bajarishini ko'rsatadi [5, B.4–5; 5, B.15].

Yapon va o'zbek muloqotida noaniqlik semantikasi va yumshatuvchi ifodalarga doir tadqiqotlarda bunday vositalar adresat bilan munosabatni saqlash hamda nutqiy bosimni kamaytirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan [8, B.70–86]. Ushbu maqolada esa mazkur masala torroq rakursda, ya'ni yapon ishbilarmonlik diskursida savol shaklidagi direktiv nutqiy aktlar doirasida ko'rib chiqiladi.

Natijalar

Savol shaklidagi direktiv nutqiy aktlar ishbilarmonlik telefon muloqotida ayniqsa faol namoyon bo'ladi. Quyidagi vaziyatda xodim telefondagi suhbatdoshni kutishga yo'naltiradi:

「このまましばらくお待ちいただけますか。」

Kono mama shibaraku o-machi itadakemasu ka.-

Shu holda bir oz kutib tura olasizmi? [10, B.165].

Ushbu ifoda grammatik jihatdan savol shaklida. Ammo muloqot vaziyatida uning asosiy funktsiyasi adresatdan telefonda kutishni so'rashdir.

「このまましばらくお待ちいただけますか」 - Shu holda bir oz kutib tura olasizmi? Iltimos nutqiy aktda so'zlovchi tinglovchiga to'g'ridan-to'g'ri “kuting” deb buyruq bermaydi, balki kutish harakatini bajarish imkoniyatini so'rayotgandek ifodalaydi. Shu sababli bu shakl bevosita ko'rsatmaga nisbatan yumshoqroq qabul qilinadi. Demak, ushbu misolda savol turg'un iborasi axborot so'rashdan ko'ra kutish harakatini muloyim tarzda so'rash funktsiyasini bajaradi.

Shu telefon muloqotida xodim suhbatdoshni ortiqcha kuttirmaslik uchun qayta qo'ng'iroq qilishni taklif qiladi:

「こちらからおかけ直しいたしましょうか。」

Kochira kara o-kake-naoshi itashimashō ka.-

Biz tomondan qayta qo'ng'iroq qilaylikmi? [10, B.165].

Bu ifodada savol shakli adresatdan harakat talab qilishdan ko'ra, so'zlovchi tomonidan bajariladigan xizmat harakatini taklif qilishga yaqin. 「こちらからおかけ直しいたしましょうか」 - Biz tomondan qayta qo'ng'iroq qilaylikmi? nutqiy aktida adresatning roziligi nazarda tutiladi. Shu jihatdan ushbu savolning turg'un iborasi muloqot jarayonini qayta tashkil etadi. suhbatdosh taklifni qabul qilishi yoki boshqa yechimni tanlashi mumkin. Bu holat savol shaklining ishbilarmonlik diskursida faqat ma'lumot so'rash emas, balki muloqotni davom ettirish va vaziyatni yumshatish vositasi sifatida ishlashini ko'rsatadi.

Qayta qo'ng'iroq qilish uchun telefon raqamini so'rashda ham savol shakli harakatga undash vazifasini bajaradi.

「-様のお電話番号をお教えいただけますか。」

-sama no o-denwa bangō o o-oshie itadakemasu ka. -

Janoblarining telefon raqamini aytib bera olasizmi? [10, B.165].

Bu ifoda tashqi jihatdan ma'lumot so'rash savoliga o'xshaydi. Ammo ishbilarmonlik vaziyatida u adresatdan aniq harakatni telefon raqamini aytishni kutadi. 「お電話番号をお教えいただけますか」 - Telefon raqamini aytib bera olasizmi? turg'un iborasi oddiy "telefon raqamini ayting" mazmunini hurmat darajali so'rov shakliga o'tkazadi. 「お電話番号」 va 「お教え」 latofat so'zlarning shakllari adresatga nisbatan hurmatni ifodalaydi, 「いただけますか」 ko'makchi fe'li esa harakatni bajarib berishni so'rash ma'nosini beradi. Demak, bu misolda savol shakli ma'lumot olish va harakatga yo'naltirish funksiyalarini birlashtiradi.

Keyingi misol raqamni qayta tasdiqlashga qaratilgan:

「もう一度確認させていただきます。03-xxxx-xxxxでよろしいでしょうか。」

Mō ichido kakunin sasete itadakimasu. 03-... de yoroshii deshō ka.

- Yana bir bor tasdiqlab olay. 03-... raqami to'g'rimi? 165-bet [10, B.165].

Bu yerda savol shakli axborotni tekshirish funksiyasini bajaradi. Biroq u faqat ma'lumot olish emas, balki adresatdan tasdiq berishni kutadi. 「03-xxxx-xxxxでよろしいでしょうか」 - 03-... raqami to'g'rimi? turg'un iborasi oddiy yaxshimi? shakliga nisbatan rasmiyroq va hurmat darajasida ekanligini ko'rsatadi. Shu jihatdan u biznes telefon muloqotida axborotni aniqlashtirish, xatoning oldini olish va adresatning tasdig'ini olishga xizmat qiladi. Bu holat savol shaklining ishbilarmonlik diskursida tasdiqlatish funksiyasini bajarishini ko'rsatadi.

Muddat va javobni eslatish vaziyatida ham savol shakli ishbilarmonlik etiketi bilan bog'liq holda qo'llanadi. Masalan:

「それで、目途としてはいつごろになるでしょうか。」

Sore de, meto to shite wa itsu goro ni naru deshō ka.-

Unda taxminan qachon bo'lishi mumkin?[10, B.154].

Bu ifoda tashqi jihatdan muddat haqida ma'lumot so'raydi. Ammo kontekstda u adresatni javob yoki qaror muddatini aniq belgilashga yo'naltiradi. 「いつごろになるでしょうか」 - Qachon bo'lishi mumkin? turg'un iborasi Qachon javob berasiz? mazmunini to'g'ridan-to'g'ri bosimsiz, ehtiyotkor xurmatni ifodalagan savol shaklida ifodalaydi. Demak, bu misolda savol shakli javobni tezlashtirishdan ko'ra, muddatni kelishish va rasmiy munosabatni saqlash funksiyasini bajaradi.

Adresatning javobni kechiktirish so'rovi ham savol shaklida beriladi:

「もう、二、三日お待ちいただけませんか。」

Mō, ni-san-nichi o-machi itadakemasen ka.-

Yana ikki-uch kun kutib tura olmasizmi? [10, B.154].



Bu ifodada adresatdan vaqt berish yoki kutish harakati soʻraladi. Inkorli savol shakli 「お待ちいただけませんか」- Kutib tura olmaysizmi? iltimosni yanada ehtiyotkorona maʼnoda beradi. Unda harakatga undash mazmuni bor, ammo u bevosita talab emas, bilvosita soʻrov shaklida beriladi. Bu holat savol shaklining ishbilarmonlik muloqotida kechikish yoki muddatni uzaytirish vaziyatini yumshatishga xizmat qilishini koʻrsatadi.

Javobni eslatishda savol shakli baʼzan toʻliq savol boʻlmagan, lekin adresatni javob berishga yoʻnaltiruvchi implitsit qurilishda ham keladi. Misol uchun:

「あのう、催促がましくて誠に恐縮なのですが、○○の件、確か今週中にお返事いただけるとのことだったと思いますが、……。」

Anō, saisoku-gamashikute makoto ni kyōshuku na no desu ga, ... no ken, tashika konshū-chū ni o-henji itadakeru to no koto datta to omoimasu ga...

- Kechirasiz, eslatayotgandek boʻlib qolyapman, lekin ... masala boʻyicha shu hafta ichida javob berishingiz haqida gaplashgan edik, deb oʻylayman... [10, B.154].

Bu yerda savol belgisi yoʻq, ammo ifoda pragmatik jihatdan adresatni javob berishga undaydi. 「今週中にお返事いただけるとのことだったと思いますが」- Shu hafta ichida javob berishingiz haqida gaplashgan edik, deb oʻylayman., - Qismi soʻzlovchining javob kutilganini bilvosita eslatayotganini koʻrsatadi. 「催促がましくて誠に恐縮なのですが」- “eslatayotgandek boʻlib qolyapman, uzr” turgʻun iborasi esa nutqiy bosimni kamaytiradi. Shu bois bu konstruksiya ishbilarmonlik diskursida savolga yaqin bilvosita direktiv ifoda sifatida qaralishi mumkin. Bu misolda soʻroq konstruksiyasi toʻliq shaklda berilmagan boʻlsa-da, nutqiy vaziyat harakatga undash mazmunini faollashtiradi.

Ayrim holatlarda savol shakli soʻzlovchining adresat oʻrniga harakatni bajarishga tayyorligini ham bildiradi:

「もし、お差し支えがなければ、私が代わってお話をお伺いしましょうか。」

Moshi, o-sashitsukae ga nakereba, watashi ga kawatte o-hanashi o o-ukagai shimashō ka.

- Agar qarshi boʻlmasangiz, men oʻrniga gapingizni eshitib olaymi? [10, B.165].

Bu ifodada savol shakli soʻzlovchining taklifini bildiradi. Biroq u adresatdan qaror qabul qilishni ham kutadi. 「もし、お差し支えがなければ」- “agar qarshi boʻlmasangiz” komponenti adresatga tanlov imkoni qoldiradi, 「お話をお伺いしましょうか」- “gapingizni eshitib olaymi?” esa soʻzlovchining kamtarona taklifini ifodalaydi. Bu turdagi konstruksiyalar yapon ishbilarmonlik muloqotida nutqiy bosimni kamaytirish va muloqotni davom ettirishga xizmat qiladi.

Muhokama

Koʻrib chiqilgan misollar yapon ishbilarmonlik diskursida savol shaklining bir nechta pragmatik funktsiyaga ega ekanini koʻrsatadi. Avvalo, savol shakli harakatga undash mazmunini bevosita buyruqdan bilvosita iltimos-soʻrovga oʻtkazadi. Kutish, maʼlumot berish, raqamni tasdiqlash yoki muddatni belgilash kabi holatlarda savol turgʻun iborasi adresatga toʻgʻridan-toʻgʻri bosim oʻtkazmasdan, zarur amalni bajarishga yoʻnaltiradi.

Ikkinchidan, savol turgʻun iborasi ishbilarmonlik etiketini saqlashga xizmat qiladi. Rasmiy muloqotda adresatga nisbatan hurmatni saqlash, murojaatni ehtiyotkor shaklda berish va talabni yumshatish muhim. Shu sababli soʻroq konstruksiyalari oddiy maʼlumot soʻrashdan farqli ravishda, muloqot ishtirokchilari oʻrtasidagi munosabatni ham tartibga soladi.

Uchinchidan, savol shakli javobni eslatish yoki muddatni kelishishda yumshatuvchi vosita sifatida ishlaydi. Muddat, javob yoki tasdiq bilan bogʻliq vaziyatlarda bevosita talab



qilish muloqotda noqulaylik tug‘dirishi mumkin. Savol shakli esa ushbu vaziyatni yumshatib, adresatga shartli tanlov imkoni qoldirgandek taassurot uyg‘otadi.

To‘rtinchidan, savol shakli ba‘zan taklif funksiyasini ham bajaradi. Bunday hollarda so‘zlovchi o‘z harakatini taklif qiladi, ammo adresatning roziligi yoki munosabatini kutadi. Bu holat so‘roq konstruksiyasining faqat axborot olish emas, balki muloqotni tashkil etish, davom ettirish va qayta yo‘naltirish vositasi sifatida ham ishlashini ko‘rsatadi.

Maqola doirasida savol shakli direktiv nutqiy aktning yagona yoki universal vositasi sifatida emas, balki yapon ishbilarmonlik diskursida harakatga undash mazmunini yumshatilgan tarzda ifodalaydigan ayrim turg‘un konstruksiyalar doirasida ko‘rib chiqildi. Shu jihatdan tahlil dissertatsiyaning umumiy modeli yoki yakuniy tasnifiga emas, muayyan grammatik-pragmatik rakursga tayanadi.

Xulosa

Maqolada yapon ishbilarmonlik diskursida direktiv nutqiy akt va savol shaklining pragmatik funksiyasi tahlil qilindi. Ko‘rib chiqilgan materiallar savol shaklining ishbilarmonlik muloqotida faqat axborot olish vositasi emas, balki adresatni muayyan harakatga yo‘naltiruvchi bilvosita nutqiy vosita sifatida ham qo‘llanishini ko‘rsatadi. Bu holat yapon ishbilarmonlik nutqida grammatik shakl va pragmatik maqsad doimo bir-biriga to‘la mos kelmasligini, ayrim hollarda so‘roq konstruksiyasi harakatga undash mazmunini ifodalashi mumkinligini anglatadi.

Tahlil qilingan misollarda savol shakli bir necha pragmatik funksiyani bajarishi kuzatiladi. Birinchidan, u bevosita buyruqni yumshatib, iltimos-so‘rov shakliga o‘tkazadi. Ikkinchidan, adresatga shartli tanlov imkoni qoldirgandek ta‘sir ko‘rsatadi va shu orqali muloqotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan bosimni kamaytiradi. Uchinchidan, ishbilarmonlik etiketini saqlashga xizmat qiladi, chunki so‘rov ochiq talab shaklida emas, ehtiyotkor va rasmiy savol turg‘un iborasi orqali ifodalanadi. To‘rtinchidan, savol shakli ba‘zan javobni eslatish, muddatni kelishish yoki taklif bildirish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Maqola doirasidagi kuzatishlar yapon ishbilarmonlik diskursida savol shakli direktiv nutqiy aktning ayrim ko‘rinishlarini ifodalashda muhim pragmatik vosita sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Biroq ushbu xulosa faqat tahlil qilingan misollar bilan cheklanadi. Maqola yapon tilidagi direktiv nutqiy aktlarning umumiy modeli yoki yakuniy tasnifini taklif etmaydi, balki savol shaklidagi ayrim iltimos-so‘rov turg‘un iboralarining ishbilarmonlik muloqotidagi pragmatik funksiyasini ochishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Carrell P.L., Konneker B. Politeness and Indirectness in Requests: A Cross-Linguistic Perspective // *Studies in Second Language Acquisition*. – 1979. – Vol. 2, № 1. – P. 73–96.
2. Carrell P.L., Konneker B.H. Politeness: Comparing native and nonnative judgments // *Language Learning*. – 1981. – Vol. 31, № 1. – P. 17–31.
3. Blum-Kulka S., Olshtain E. Requests and Apologies: A Cross-Cultural Study of Speech Act Realization Patterns // *Applied Linguistics*. – 1984. – Vol. 5, № 3. – P. 196–213.
4. Xronopulo L.Yu. Imperativnaya semantika i sredstva yeye virajeniya v sovremennom yaponskom yazike: dis. ... kand. filol. nauk: 10.02.22. – Sankt-Peterburg, 2007. – 171 s.
5. Iosifova V.E. Russkiy imperativ v grammaticheskoy sisteme i v razgovornoy rechi: avtoref. ... d-ra filol. nauk: 10.02.01. – Moskva, 2011. – 34 s.
6. Alpatov V.M., Arkadyev P.M., Podlesskaya V.I. Theoretical grammar of the Japanese language [Teoreticheskaya grammatika yaponskogo yazika]. – Moskva: Natalis, 2008. – 559 s.



7. Khalmurzaeva N. Specific Features and Characteristics of Japanese Communicative Act // American Journal of Philological Sciences. – 2023. – Vol. 3, № 06. – P. 101–107.
8. Xalmurzayeva N. Yapon va o‘zbek tillaridagi muloqotda noaniqlik semantikasi asosida shakllanuvchi xushmuomalalik strategiyalarining qiyosiy tahlili // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2025. – 11-jild, № 4. – B. 70–86.
9. Khalmurzaeva N.T. Peculiarities of Intercultural Understanding in Uzbek and Japanese Verbal Communication // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Vol. 10, № 11. – P. 1473–1481.

Tahlil materiallari:

10. Xalmurzayeva N.T. Osnovi biznes kommunikatsii v yaponskom yazike. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti nashriyoti, 2023. – 207 b.
11. 金子広幸. にほんご敬語トレーニング. – 東京: アスク出版, 2006. – 175 b. (s.)